

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french.....	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymlar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri.....	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 373.3:004.9

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI O'QITISH METODLARI**МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ****METHODS OF TEACHING THE NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY EDUCATION BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES****Xoldarova Irodaxon Valijonovna** Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası professori
0000-0001-9905-7020**Annotatsiya**

Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ona tili ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash esa o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, matn tuzish, nutqiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Аннотация

Использование инновационных методов и технологий в процессе начального образования имеет важное значение для развития мышления учащихся и формирования у них навыков самостоятельного обучения. Использование цифровых технологий в обучении родному языку создает у учащихся широкие возможности для увеличения словарного запаса, составления текстов, развития навыков речевого общения, формирования самостоятельного мышления и творческих подходов.

Abstract

The use of innovative methods and technologies in primary education is important for developing students' thinking and forming their independent learning skills. The use of digital technologies in mother tongue education provides broad opportunities for students to increase their vocabulary, compose texts, develop speech communication skills, and form independent thinking and creative approaches.

Kalit so'zlar: ta'lim, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, elektron darsliklar, videodarslar, audiokitoblar, interaktiv, matn tuzish, nutqiy muloqot, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv.

Ключевые слова: образование, цифровые технологии, инновационный метод, электронные учебники, видеоуроки, аудиокниги, интерактив, текстовая композиция, речевое общение, самостоятельное мышление, творческий подход.

Key words: education, digital technologies, innovative methods, e-textbooks, video lessons, audiobooks, interactivity, text composition, speech communication, independent thinking, creative approach.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalarida chuqur kirib kelmoqda. Ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish jarayonida raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Raqamli texnologiyalarni joriy etmasdan turib, ta'lim sifatini yuksaltirib bo'lmaydi. Yangi avlodni zamon talablari asosida o'qitish bizning eng muhim vazifamizdir". Ushbu fikrlar ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar kiritish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining 2022-yilgi Murojaatnomasida shunday degan edi: "Raqamli texnologiyalarni joriy etmasdan turib, ta'lim sifatini yuksaltirib bo'lmaydi. Yangi avlodni zamon talablari asosida o'qitish bizning eng muhim vazifamizdir." Mazkur so'zlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ona tili ta'limida

raqamli texnologiyalarni qo'llash esa o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, matn tuzish, nutqiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil o'qish, yozish va fikrlash faoliyatiga jalb etadi. Jumladan, elektron resurslardan foydalanish, audio va video materiallar yordamida fonetik, leksik va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish samarali natija beradi. Bu borada allomalarimizning ta'lim haqidagi qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Abu Nasr Forobiy bilim olish jarayonida ko'rgazmalilik va tajribaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Abu Ali ibn Sino esa bilimlarni bosqichma-bosqich o'rgatish zarurligini qayd etgan.

Bugungi kunda bu fikrlar raqamli texnologiyalar orqali yangi mazmun kasb etmoqda. Zamonaviy pedagog olimlar ham raqamli ta'limning afzalliklarini alohida qayd etadilar. Masalan, A.Qodirov fikricha: "Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish, xususan raqamli resurslarni qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi." Alisher Navoiy inson ma'naviyatini yuksaltirishda ilm va ta'limning o'rnini alohida ta'kidlagan. Bugungi kunda ilmiy-metodik tadqiqotlarda ham raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati e'tirof etilmoqda. Masalan, zamonaviy pedagog olimlar raqamli ta'lim vositalarining integrallashgan darslarni tashkil etishda katta imkoniyat yaratishini alohida qayd etishadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar: elektron ta'lim resurslari: elektron darsliklar, videodarslar, audiokitoblar orqali mavzularni chuqurroq o'zlashtirishadi; interaktiv platformalar: "Kundalik.uz", "EduMarket", "LearningApps", "Quizizz", "Kahoot" kabi platformalar orqali kompyuter va internetdan samarali foydalanishni o'rganadi; mobil ilovalar orqali lug'at boyligini oshiruvchi, to'g'ri talaffuzni shakllantiruvchi turli dasturlarni o'rganadi; onlayn test tizimlari esa bilimlarini baholashda aniq va tezkor natija beradi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonda elektron darsliklar, multimedia vositalari, interaktiv platformalar, onlayn testlar va mobil ilovalar keng qo'llanmoqda. Masalan, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tilidagi nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus multimediali mashqlar va interaktiv dasturlardan foydalanish mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ona tili darslarida quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

Ko'rgazmali metod: video, animatsion roliklar va audio materiallardan foydalanib, tovushlar talaffuzi, so'zlarning to'g'ri yozilishi va gap tuzilishini o'rgatish.

Interfaol metod: elektron mashqlar va taqdimotlar yordamida o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish.

O'yin metodlari: raqamli platformalarda "So'z toping", "Gap tuzing", "Sinonim-antonim izlang" kabi o'yinlarni tashkil etish.

Mustaqil ta'lim metodlari: uy sharoitida mobil ilovalar orqali mashq qilish va onlayn topshiriqlarni bajarish. Ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil o'qish, yozish va fikrlash faoliyatiga jalb etadi. Jumladan, elektron resurslardan foydalanish, audio va video materiallar yordamida fonetik, leksik va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish samarali natija beradi. Bundan tahqari, o'quvchilarda darsga qiziqish ortadi, mustaqil ishlash va bilim olish ko'nikmalari shakllanadi, dars samaradorligi oshadi hamda nutqiy faoliyat ko'nikmalari mustahkamlanadi. Masalan, ona tili darsida "Kahoot" platformasida o'tkazilgan tezkor savol-javob mashg'ulotlari o'quvchilarning lug'at boyligini ham, tez fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida ona tili darslarini tashkil etish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, raqamli ta'limni rivojlantirmasdan turib, bilimli va yetuk avlodni tarbiyalash mumkin emas. Shu sababli, har bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi raqamli vositalardan samarali foydalanishi, ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirishi zarur. Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish,

TILSHUNOSLIK

ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va zamon talablari asosida ta'limni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, kelgusida raqamli texnologiyalardan foydalanish ona tili ta'limi metodikasining ajralmas qismiga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari. – Toshkent, 2020–2023.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Ibn Sino A.A. Donishnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1980.
5. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1989.
6. Qodirov A. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. To'xtayev B. Raqamli ta'lim metodlari. – Samarqand: SamDU, 2021.
8. Umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent: Xalq ta'limi vazirligi, 2020.
9. Zamonaviy pedagogika jurnali. – Toshkent, 2022–2023.
10. Elektron ta'lim platformalari: Quizizz, Kahoot, LearningApps. – Internet manbalari.